



O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish asosiy vazifamizdir!

# Vaziyat

2025-yil  
9-yanvar  
№ 2 (995)



O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi nashri

Gazeta 2004-yil 7-maydan chiqa boshlagan

**14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni**

## ALPOMISH IZDOSHI



Qahramonimiz hozirgi kunda Toshkent shahar Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Yunusobod tumani FV bo'limi 17-yong'in-qutqaruv qismida qutqaruvchi-yong'in o'chiruvchi vazifasida xizmat qilib kelmoqda.

Shaxliyor Paxritdinov 1994-yil 6-yanvar kuni Toshkent viloyatining so'lim va bahavo go'shasi Bo'stonliq tumanida tug'ilgan. 2013-yilda Tovoqsoy iqtisodiyot va tadbirkorlik kasb-hunar kollejini tamomlagan. 2018-yilda Toshkent shahar Ichki ishlar Bosh boshqarmasi Yong'in xavfsizligi boshqarmasi Mirzo Ulug'bek tumani yong'in muhofaza qiluvchi 7-harbiylashtirilgan yong'in xavfsizligi qismi dispetcheri vazifasiga qabul qilingan Shahliyor, bugun Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida fidoyilik bilan xizmat faoliyatini davom ettirib kelayapti.

Bugungi kunda u nafaqat yong'in-qutqaruvchi, balki mohir sportchi sifatida ham vazirlik tizimida barchaga yaxshi tanish. Uning professional musobaqalar va bahslardagi hayratlanarli ishtirokiga ko'plab safdoshlari qoyil qolganlar. Undagi kuch, matonat, ayni vaqtda mana shunday kuchni tutib turuvchi mustahkam intizom, sabr-toqatlilik, do'stlariga, hamkasblariga va atrofdagilarga nisbatan yaxshilik qilishga xayrixohlik, insoniylik, bag'rikenglik va xushfe'llik fazilatlarini barcha qutqaruvchilarga o'rnak, desak xato bo'lmaydi.

Hayotda shunday insonlarga duch kelamizki, ularning yurish-turishi, qaddi-basti jasur ajdodlarimizning savti-salobati, shiddati-yu himmatini yodga soladi. Oramizda bunday pahlavonlarning borligi bizni nechog'lik buyuk ajdodlarning haqli va baxtli avlodlari ekanligimizni har lahzada isbot etib turadi. Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimi, bugunning chinakam xaloskorlaridan biri bo'lgan Paxritdinov Shaxliyor Baxtiyorovichni ana shunday insonlardan ta'bir joiz bo'lsa, Alpomishning izdoshi, desak aslo mubolag'a qilmagan bo'lamiz. Qutqaruvchilar safida go'yoki ulkan bir qoyani ko'rsangiz, aslo ajablanmang, u ko'rkam qutqaruvchilik kiyim-boshi o'ziga yarashgan, bo'yi naqd 1,94 metr, vazni esa 145 kg., milliy kurash, qo'l jangi, universal sport turlari bo'yicha O'zbekiston kubogi sovrindori, ko'plab yong'in va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda matonat ko'rsatib kelayotgan oddiy askar Shaxliyor bo'ladi.

Qahramonimizga ustozlik qilib, u bilan birga yelkama-yelka xizmat qilayotgan, ko'plab yong'inlar va boshqa tushdagi favqulodda vaziyatlarni bartaraf qilishda jonbozlik ko'rsatgan inson, Toshkent shahar FVB "Tashkent city" ixtisoslashtirilgan YOQO komandiri, podpolkovnik Azamat Qurbonov shogirdi haqida shunday deydi: "– Shahliyor juda tartib-intizomli yigit. Bundan tashqari, o'z ustida tinimsiz ishlaydigan, mashaqqatdan cho'chimaydigan, zarur paytda mas'uliyatni o'z zimmasiga oladigan qutqaruvchilarimizdan biri. U do'stlariga juda mehribon. Boshqalarga qo'lidan kelgancha yaxshilik qiladi. Bilganlarini yosh mutaxassislariga o'rgatadi. Eng muhimi, unda bir qutqaruvchi uchun kerak bo'lgan barcha fazilatlar jam. Hali undan umidlarimiz katta. U milliy kurash, qo'l jangi, universal sport bo'yicha nafaqat O'zbekiston, balki jahon chempioni ham bo'ladi. Bunga shubham yo'q".

O'z navbatida, Shaxliyor ham biz bilan kechgan suhbatda hayotdagi, sportdagi va kasbiy sohadagi yutuq hamda muvaffaqiyatlarida ustoz podpolkovnik Azamat Qurbonovning mehnatlarini alohida e'tirof etib, samimiy minnatdorchiligini izhor qildi.

Darhaqiqat, bugun O'zbekiston xaloskorlarining ichida eng kuchli, eng fidoyi, eng faollardan biri bo'lgan oddiy askar Shaxliyor Paxritdinov haqida ko'plab iliq so'zlar aytish mumkin. Istagimiz shuki, Shaxliyor va uning safdoshlarining barcha harakatlari mashqlaru sinovlarda qolsin. Hayotda esa aslo yong'inu, ofatlar



bo'lmasin. Yurtimiz tinch, xalqimiz hamisha farovon bo'lsin.

Lavhamiz yakunida Shaxliyorga sharafli vazifa, mashaqqatli kasb yo'lida hamisha omad, mustahkam salomatlik va zafarlar yor bo'lishini so'rab qolamiz. Yaqinlashib kelayotgan 14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan qahramonimiz singari alp-qomat, sheryurak xaloskorlarimizni samimiy muborakbod etar ekanmiz, hududlarimiz osoyishtaligi va aholimiz xavfsizligi yo'lida aslo tolmang, deb qolamiz.

Masrur SANAYEV,  
"Vaziyat" muxbiri.

## "TAXTAQORACHA" DA SINOV

Samarqand viloyati FVB tomonidan Urgut tumani "Taxtaqoracha" dovoni hududida favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda boshqaruv organlari, FVDT xizmatlari va tuzilmalarining tayyorgarligini aniqlash hamda ularning amaliy ko'nikmalarini takomillashtirish maqsadida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



Qish mavsumida "M-39 Toshken-Termiz" avtomobil yo'lining "Taxtaqoracha" dovonidan o'tuvchi qismini

uzluksiz va barqaror faoliyatini ta'minlash bo'yicha tuman FVDT xizmatlari rahbarlari tarkibini kuch va vositalarni boshqarish, avariya-qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan tadbirlarni o'tkazishda amaliy bilim va ko'nikmalari takomillashtirildi.

Dastlab, tuman hokimligi va viloyatning tegishli FVDT xizmatlari saf ko'rigi o'tkazilib, ularning tayyorgarligi, yetarli texnikalar va asbob-anjomlari bilan ta'minlanganligi tekshirildi. Dovonda sodir bo'lgan favqulodda vaziyat natijasida ko'chirilgan aholiga va dovonda harakat cheklanishi oqibatida qolib ketgan fuqarolarni issiq ovqat va choy bilan ta'minlash maqsadida ko'chma chodir o'rnatilib, yaratilgan sharoitlar ko'rib chiqildi. Ekstremal sharoitda "Taxtaqoracha" dovonining 1115 km.da



sodir bo'lgan qor ko'chkisi natijasida qor ostida qolgan fuqarolarni qidirish qutqarish ishlarini olib borish va xavfsiz hududlarga evakuatsiya qilish tadbirlari hamda birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar bajarildi.

Nurali KADIROV,  
Samarqand viloyati FVB boshlig'i, podpolkovnik.



## QONUN USTUVORLIGI

Qonun ustuvorligi tamoyilini zamonaviy-huquqiy davlatning asosi sifatida e'tirof etish normativ-huquqiy hujjatlar va huquqni qo'llash amaliyoti nafaqat normativlik belgilariga mos kelishi va qonun hujjatlariga muvofiq, balki uyg'un bo'lishi talabini ham nazarda tutadi. Adolat talablari va inson huquqlarining oliy qadriyat g'oyasi bilan, qonun ruhiga rioya qilishlikdir. Qonun ustuvorligi huquqiy normalarni adolatli qo'llashni ham, talablarni aks ettirishni ham nazarda tutadi. Zamonaviy O'zbekiston huquqiy tizimida qonun ustuvorligi, inson huquqlari,

adolat talablari tushunchalari huquqiy paradigma darajasiga ko'tarilib, barcha asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy huquqiy davlatning majburiy talablari sifatida huquqiy adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash muammolari inson va fuqaroning huquq va erkinliklarini samarali ta'minlash hamda himoya qilish bilan bevosita bog'liqdir.

**R.SHAFIYEV,**  
FVV O'MTOYOXTTEB "LUOK"  
MCHJ OYOXTTE Markazi boshlig'i,  
podpolkovnik.

## PROFILAKTIK ISHLAR

Buxoro viloyati FVB "Aziya Trans Gaz" MCHJ OYOXTTEB 23-YOQQ xodimlari tomonidan obyektlarda "Yong'in xavfsizligi oyligi" da faol ishtirok etish hamda qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish, mavsum mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini

olish, shuningdek, yong'in xavfsizligini ta'minlash maqsadida profilaktik ishlar, ishchi-xizmatchilar bilan suhbatlar o'tkazilib borilmoqda.

**Anvar KAMOLOV,**  
Buxoro viloyati FVB "Aziya Trans Gaz"  
MCHJ OYOXTTEB inspektori, kapitan.

## OSIYO KUBOGI SOVRINDORI



FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi harbiy xizmatchisi, Universal jang va "World Usmonov Combat Systems" sport turlari bo'yicha xalqaro toifadagi sport ustasi kichik serjant R.Zakirov yoshligidan sportning mashaqqatlariga qaramasdan tinimsiz Universal jang sport turi bilan shug'ullanib, yuqori natijalarga erishib kelmoqda. Mehnatlari natijasida yetti karra Jahon chempioni, to'rt karra Osiyo chempioni hamda

"World Usmonov Combat Systems" sport turi bo'yicha ko'plab musobaqalar sovrindori bo'lishga ham ulgurdi.

Yaqinda hamkasbimiz yana yuqori natija qayd etib, butun Osiyo qit'asiga o'zining kuchliligini yana bir karra isbotladi. Qahramonimiz Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida o'tkazilgan "World Usmonov Combat Systems" sport turi bo'yicha Osiyo kubogida "To'liq jang" yo'nalishi bo'yicha 71 kg. vazn toifasida faol qatnashib, faxrli birinchi o'rinni egallab, 2025-yil may oyida o'tkazilishi belgilangan Butun Jahon o'yinlariga qatnashish yo'llanmasini qo'lga kiritdi.

**Nodir KADIROV,**  
FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazi bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.

## "SIYMO-DIZAYN" MCHJ QURILISHIDA ...

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan "Chamanbog" MFY-dagi "SIYMO-DIZAYN" MCHJ qurilish tashkiloti tomonidan yangi quriladigan binoda ishlayotgan quruvchi hamda ishchi xizmatchilariga qurilish joylarida yong'in hamda texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, favqulodda vaziyat hamda yong'in yuz berganda bartaraf qilish usullari va is gazidan zaharlanishning oldini olish, gaz-havo aralashmasi chaqnashi va sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlarning kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik to'g'risida tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Shuningdek, yong'in xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlarini kuchaytirishga qaratilgan hamkorlikdagi profilaktik ishlarni amalga oshirish kerakligi qurilish mas'ullariga tushuntirildi.



Tadbir davomida qurilish ishlari olib borilayotgan binolarda ish yuritadigan quruvchilar yotoqxonalaridagi yashash sharoiti, isitish tizimlari va ovqatlanish joylari atroficha o'rganilib, qonun buzilish holatlari bo'yicha maskan ishchilariga va rahbariyatiga tushunchalar berildi.

**Jamshid PO'LATOV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, podpolkovnik.

Yurtimizda inson sha'ni, qadr-qimmatini hamisha ulug'langan. Ammo oramizda o'zgalarni haqorat qilib, sha'nini yerga uradiganlar ham uchrab turadi. Yaqinda sudda shunga o'xshash jinoyat ishi ko'rib chiqildi. 28 yoshli T.X. ismli ayolga muqaddam jinoyat ishlari bo'yicha Shayxontohur tuman sudining 2021-yil 12-oktyabrdagi hukmiga ko'ra, 3 yil muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlangan.

## HAQORAT QILGANLIGI UCHUN...

Sud sudlanuvchi va jabrlanuvchining ko'rsatmalarini tinglab, jinoyat ishi hujjatlarini o'rganib chiqdi hamda ishda mavjud bo'lgan dalillarga baho berib, quyidagilarni aniqladi.

Ma'lum bo'ldiki, T.X. 2023-yil 6-dekabr kuni ijtimoiy tarmoqda 600.000 nafar obunachiga ega bo'lgan, o'zining profili orqali xizmat burchini bajarayotgan Yakkasaroy tumani IIO FMB 2-sonli IIB XPB profilaktika inspektori lavozimida ishlovchi M.S.ni obro'sizlantiradigan video murojaatini jahon axborot tarmog'iga joylashtirib, inspektorning sha'ni va qadr-qimmatini beodoblik bilan qasddan tahqirlab, haqorat qilgan.

Sudlanuvchi T.X. sud majlisida aybiga to'liq iqrorlik bildirdi. U ijtimoiy

tarmoqdagi so'zlari haqorat ekanligini bilmaganligini, hozirda qilmishidan pushaymonligini, o'z harakatlari oqibatini to'liq tushunib yetganligini, bundan keyin bu kabi jinoyatlarni sodir etmasligini bildirdi. Oilaviy sharoitini inobatga olib, yengilik berilishini so'radi.

Uning aybi sud majlisida so'roq qilingan jabrlanuvchining ko'rsatmasi bilan ham o'z tasdig'ini topdi.

Sud unga jazo tayinlashda barcha jihatlarini inobatga oldi. T.X.ga 2-yil 1 oy muddatga ozodlikni cheklash jazosi tayinlandi.

**Alisher JALILOV,**  
Jinoyat ishlari bo'yicha Yakkasaroy tuman sudining raisi.

## AEROPORTDA PROFILAKTIKA

"Nukus xalqaro aeroporti" MChJda Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB xodimlari tomonidan qishning sovuq kunlarida isitish moslamalaridan foydalanishga ehtiyoj ortishi sababli no-stadart elektr isitish moslamalari, ulaming konstruksiyasida nazarda tutilgan yong'in kelib chiqish ehtimolini istisno qiluvchi termoregulyatori mavjud bo'lmagan yoki nosoz hollarda foydalanmaslik, himoya qobig'i shikastlangan va o'z himoyalash xususiyatini yo'qotgan elektr kabel hamda simlardan foydalanmaslik, shikastlangan rozetkalar va ulanish qutilari, yoqib-o'chirish kalitlari va boshqa har xil nosoz elektr uskunalaridan foydalanmaslik tushuntirildi.

Ushbu tadbirlar davomida aeroport xodimlarining yong'in xavfsizligi

masalalarida o'z mas'uliyatini oshirishi, xizmat joylarida yong'in xavfsizligi



qoidalariga qat'iy rioya qilish bo'yicha yo'riqnoma o'tkazildi.

**Alibek ATADJANOV,**  
Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB OYXTTEB inspektori, mayor.

## AMALIY JARAYON

"Qamchiq" dovonida joylashgan avtomabillarga gaz quyish shoxobchalarida yong'in o'chirish amaliy-taktik mashqlari o'tkazib kelinmoqda.

Bu mashg'ulotlar davomida qutqaruvchilar tomonidan maskanlarning yong'inga qarshi suv hovuzlari mavjudligi, suv bilan ta'minlanganligi, bir-

lamchi yong'in o'chirish vositalari bilan jihozlanganligi va ulardan foydalanish, yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari bo'yicha haydovchilar bilan suhbat o'tkazildi va eslatmalar tarqatildi.

**B.ANORQULOV,**  
"Qamchiq" MQYOQB otryad komandiri, mayor.

## XAVFSIZLIK TA'MINLANSIN!

Buxoro viloyati Kogon tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan keng ko'lamli amaliy-profilaktik ko'rik o'tkazildi.

Unda tuman hududida qurilish ishlarini olib borilayotgan quruvchilarga yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari hamda quruvchi va ustalarning ovqat tayyorlash va dam olish xonalarida gaz va elektr energiyasidan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilishlari zarurligi

tushuntirildi. Bundan ko'zlangan maqsad qurilish ishlari olib borilayotgan maskanlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va gaz-havo aralashmasi chaqnashining oldini olish va yong'in xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir.

**U.DILMURODOV,**  
Kogon tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.  
**R.RAHMONOV,**  
bo'lim katta inspektori, katta leytenant.



## GENERAL VA YOSHLAR UCHRASHUVI



O'zbekiston Milliy universitetida tashkil etilgan "General va yoshlar" uchrashuvida universitet rahbariyati, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlar, FVV Akademiyasi professor-o'qituvchilari, harbiy xizmatchilar, xizmatchilar, kursantlar ishtirok etdilar.

Shu bilan birga yoshlarni nafaqat harbiy sohaga balki, "Qutqaruvchilik" kasbiga bo'lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirida general-mayor Ravshan Haydarov yoshlar bilan muloqot qilib, ularni qiziqtirgan ko'plab savollarga atroflicha javob berdi.

– Men, siz yoshlar bilan bo'ladigan har qanday uchrashuv va jonli muloqotdan cheksiz kuch-quvvat va ko'tarinki ruh olaman.

Yoshlarning dilidagi maqsad va niyatlaridan xabardor bo'lish, ularni katta-katta ishlarga safarbar etish uchun ana shunday uchrashuvlar juda zarur, - deydi FVV Akademiyasi boshlig'i general-mayor Ravshan Haydarov. Uchrashuvda so'zga chiqqan univnersitet rektori



Inomjon Majidov mamlakatimizda yoshlarning iqtidorlarini namoyon etish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar, harbiylik kasbning nufuzi va mas'uliyati xususida ma'lumot berdi.

Uchrashuv davomida oliy ta'lim muassasasida tahsil olayotgan

yoshlarimizning taklif va mulohazalari, ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishdagi takliflari qabul qilindi.

**Farhodjon XOJAYEV,**  
FVV Akademiyasi katta o'qituvchisi  
mayor.

## SAYYOR QABUL

Farg'ona viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasining harbiy xizmatchilari, xizmatchilari hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, mavjud muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, hal etilishini ta'minlash maqsadida, Farg'ona harbiy prokurori adliya polkovnigi Salomov Ilhomjon Islamovich tomonidan ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Ushbu tadbirida turli masalalar bo'yicha murojaatlarni hal etish uchun Maktabgacha va maktab ta'limi, Sog'liqni saqlash, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik, Adliya, Markaziy bankning viloyat boshqarmalari, "Ishga mar-

hamat" monomarkazi vakillari ham ishtirok etdi.

Sayyor qabul davomida boshqarma harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolari tomonidan o'z yechimini topmayotgan masalalar va muammolari yuzasidan Farg'ona harbiy

prokuroriga va tegishli mutasaddi tashkilotlar vakillariga murojaat qilib, murojaatlarning asosiy qismi joyida tushuntirishlar va huquqiy maslahatlar berish orqali hal etildi. Vaqt va o'rganish talab etiladigan murojaatlar tegishlilik bo'yicha nazoratga olindi.

**Ashurali ARIPJONOV,**  
Farg'ona viloyati FVB  
shaxsiy xavfsizlik bo'limi bosh  
inspektori, podpolkovnik.

## MA'RIFAT SOATI

FVV Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi shaxsiy tarkibi bilan ma'naviy-ma'rifiy tayyorlik mashg'uloti o'tkazildi.

Mashg'ulot "Adolat va qonun ustuvorligi — xalqparvar davlat poydevori" mavzusi-da bo'lib, unda boshqarma boshlig'i podpolkovnik M.Salomov qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta'minlanishiga xizmat qiluvchi asosiy tamoyil ekani, bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan mustahkamlab o'tilgani haqida so'z yuritdi.



Shuningdek, tadbir jaryonida, o'z xizmat vazifalariga sidqidildan yondashib, yuqori natijalarga erishgan bir qator harbiy xizmatchilar rag'batlantirildi.

**Sh.AHMADALIYEV,**  
FVV Maxsus muhandislik-qurilish boshqarmasi bo'lim boshlig'i, mayor.

## HAMKORLIKDAGI HARAKATLAR

Toshkent viloyati FVB TBM TBX harbiy xizmatchilari tomonidan Ohangaron tumanidagi "Yangi Angren IES" AJ hududida yong'in-qutqaruv amaliy-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.



O'quv mashqida shartli yong'in joyi sifatida 2020-yilda jamiyat hududida yong'in sodir bo'lgan joy, ya'ni "Yangi Angren IES" AJ qozon bo'li-

mi tom qismi (ostida saqich (ruberoid) qoplamasi, ayrim joylarda issiqlikni qaytaruvchi qoldiqlari hamda tomning barcha qismiga to'planib qolgan ko'mir kukunlari tanlab olindi va asosiy e'tibor Issiqlik elektr stansiyalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlarni bartaraf etish, jabrlangan fuqarolarni qutqarish, ularga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish

hamda hamkorlikda ishlovchi xizmatlarning harakatlarini muvofiqlashtirishga qaratildi.

Shu bilan birga shaxsiy tarkib tomonidan baland binolarda to'g'ri va xavfsiz harakatlanish bo'yicha ko'nikmalar olinishiga erishildi. Aniqlangan kamchiliklar mashq yakunida har bir xizmat va yong'in-qutqaruv bo'linmalarini harakatlariga baho berildi.

**O.BEKNAZAROV,**  
Toshkent viloyati FVB TBM  
TBX smena boshlig'i, mayor.  
**X.MUXTOROV,**  
TBX katta ofitseri, kapitan.

## BOZORDA TADBIR

Yashnobod tumani FV bo'limi, tuman IIO FMB, shuningdek, Milliy gvardiya xodimlari hamda bozor ma'muriyati vakillari bilan doimiy ravishda profilaktik tadbirlarni olib bormoqdalar.

Ana shunday tadbirlardan biri Yashnobod tumanida joylashgan yirik bozorlardan biri bo'lgan "Aviasozlar" dehqon bozorida bo'lib o'tdi. Unda bozor hududidagi har bir tadbirkor bilan yakka tartibda profilaktik suhbat olib borilib, rasta va do'konlarning yong'in xavfsizligi holati ko'zdan kechirildi. O'rganish davomida aniqlan-

gan kamchiliklar yuzasidan tadbirkorlarga ogohlantirish va tavsiyalar berilib, bartaraf etish choralar ko'rildi.

**I.MINBAYEV,**  
Yashnobod tumani FV  
bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.  
**A.HAYITBOYEV,**  
katta leytenant.

## TAKTIK O'QUV

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qorao'zak tumani-da "Odamlar o'rtasida Qrim-Kongo gemorragik istitmasi kasalligining oldini olishda FVDT tuman bo'g'ini tarkibiga kiruvchi xizmatlarining hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi tumanning "Allayar Dosnazarov" ovul fuqarolar yig'inida bo'lib, ushbu kasallikka gumon qilingan bemorni aniqlash, rahbarlar va xizmatlarga xabar berish, bemorni alohidalash, birinchi

tibbiy yordam ko'rsatish, epidemiologik va epizootologik surishtiruv ishlarini olib borish, kasallikning tarqalishini oldini olish maqsadida aholi o'rtasida targ'ibot-tashviqot tadbirlarini amalga oshirish,

kasallik o'chog'ida dezinfeksiya ishlarini amalga oshirish va uni bartaraf etish harakatlari amalda sinovdan o'tkazildi. O'quv mashqi yakunida amaliy harakatlar o'zaro muhokama etilib, mutasaddilarga zarur tavsiya hamda ko'rsatmalar berildi.

**A.AMIRXANOV,**  
Qorao'zak tumani FV bo'limi  
TB boshlig'i, katta leytenant.

## TUNGI NAZORAT

Andijon viloyati FVB rahbariyati tomonidan Andijon shahridagi Bolalar shaharchasi, Andijon tumani Tibbiyot birlashmasi, tug'ruq kompleksi, terapiya bo'limi, shoshilinch tibbiy yordam bo'limi va "Bo'taqora" muruvvat uyida navbatdagi tungi profilaktik tadbirlar tashkil etildi.

O'rganishlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish ishlari, fuqarolar va bemorlar xavfsizligini ta'minlash, binodagi yong'inga qarshi texnik himoya vositalariga va binolarning isitilish holatiga alohida e'tibor qaratildi.

Favqulodda vaziyatlarning oldini olish sodir bo'lganda harakatlanish tartiblari yuzasidan tushuntirish ishlari olib borilib, yo'l-yo'riqlar berildi.

**Baxtiyor GAPPAROV,**  
Andijon shahar FV bo'limi  
inspektori, kapitan.



# YANGI O'ZBEKISTONNING



O'zbekiston – Markaziy Osiyoning eng muhim strategik nuqtasida joylashgan davlat. Tabiiyki, bunday joylashuv mamlakatimizni har jihatdan ishonchli himoya qilish, borgan sari shakli shamoyili, uslub va taktikalari o'zgarib borayotgan qurolli tahdidlarga qarshi qo'shinlarni tezkor tayyorlash, erishilgan natijalarni tanqidiy tahlil qilib, milliy armiyani yangi innovatsion texnologiyalar asosida muntazam takomillashtirib borishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan mazkur vazifalar Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Harbiy prokuraturasi mazkur vazifalarning samarali bajarilishida mustahkam o'rin tutayotgani tizimdagi har bir xodimga iftixor bag'ishlaydi. Harbiy prokuratura organlari xodimlari bir vaqtning o'zida ham harbiy xizmatchi, ham prokuratura xodimi ekanini hisobga olsak, har safar yangi yil kirib kelganidan so'ng ikki shonli sana — O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilgan kunlarning ketma-ket nishonlanishi biz uchun ikki karra g'urur bag'ishlaydi. Ushbu jarayonlar bizga ortda qolgan yilga nazar tashlab, faoliyatimizni sarhisob qilish, yutuqlar va kamchiliklardan xulosa chiqarish, faoliyatimizni takomillashtirish uchun aniq mexanizmlarni belgilashdek mas'uliyatni ham his qildiradi.

## **Xalq va armiya – bir tanu bir jon!**

Vatanni himoya qilish, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash yurtning har bir farzandini vazifasidir. Demak, Vatan himoyachilari kuni nafaqat harbiy xizmatchilar, balki, shu yurt koriga yarayotgan har bir yurtdoshimizning bayrami, desak yangilishmaymiz. "Xalq va armiya – bir tanu bir jon!", degan oliyanob g'oya va tamoyil hamda amaliy harakatlar barcha bo'g'indagi hokimiyat va boshqaruv idoralari, mahalla, yoshlar,

*Ishonchim komil, prokuratura xodimlari qonun himoyasi – bu xalq va Vatan himoyasi kabi muqaddas burch ekanini chuqur anglab, zimmalaridagi g'oyat mas'uliyatli va sharaflil vazifani bundan buyon ham samarali ado etadilar.*

**Shavkat MIRZIYOYEV**

xotin-qizlar, nuroniylar tashkilotlari, ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyati, qo'yingki, keng jamoatchilik hayotiga singib ketgani boisi ham shunda.

Eng bebaho boylik bu – yurt tinchligi va xalq osoyishtaligi. Notinchlik hukm surgan yurtda begunoh insonlar qurbon bo'lib, taraqqiyotga putur yetkazadi, inson qadri toptaladi. Yaqinda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizga evakuatsiya qilingan, ayni paytda sihatgohlarimizda davolanib, sog'liqlarini qayta tiklayotgan 100 nafar Falastin fuqarolari, jumladan, norasida bolalar ushbu haqiqatni hammadan ko'ra teranroq his qilsalar ajab emas. Ularning boshidan kechirganlarini eshitgan odam borki, mushohada yuritadi, munavvar tonglarimiz shukuhini, bolalarning shodon kulgisi naqadar totli ekanini anglab yetadi. Bebaho ne'matni asrash, xalqimizning osuda hayot kechirishini, Vatan mustaqilligi va suverenitetini, uning hududiy yaxlitligini ta'minlash Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlaridan yanada ogohlik va fidoyilikni talab etadi.

Harbiy prokuratura organlari tomonidan Qurolli Kuchlarda Konstitutsiya va qonun ustuvorligini hamda qonuniylikni ta'minlash bo'yicha qator ishlar olib borilmoqda. Avvalo, "Harbiy prokuratura – armiya prokuraturasi" shiori ostida harbiy xizmatchilar hamda xodimlarning huquq va qonuniy manfaatlariga rioya etilishiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bunda xodimlarimizning harbiy xizmatchilarga yaqin ko'makchi, huquqiy maslahatchi va maslakdosh bo'lishdek yangicha yondashuv asosida ish tutayotgani fuqarolarning roziligi hamda ishonchi ortishiga sabab bo'lmoqda.

## **Bir vaqtning o'zida ko'plab yechim**

Qurolli Kuchlar vazirlik va idoralari rahbarlari bilan hamkorlikda hududlarga chiqib ommaviy sayyor qabullar tashkil etildi. Ahamiyatlisi, muqaddam har bir vazirlik alohida o'tkazgan qabuldan farqli o'laroq, bunday qabullarda muammolar taalluqliligi bo'yicha bir vaqtning o'zida bir nechta tizim rahbarlari va mas'ullari tomonidan tinglanmoqda. Tegishliligiga ko'ra, mutasaddilar ishtirokida joyida ko'rib chiqilib, tezkor hal etilmoqda. Muayyan vaqt talab etadigan murojaatlar yuzasidan hamjihatlikda aniq chora-tadbirlar belgilanmoqda. Tabiiyki, samaradorlik ham yuksalayotir. Bu esa murojaat egalari konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish uchun qulay imkoniyatlar taqdim etadi.

## **Oila tinch – Vatan tinch**

Harbiy xizmatchi bor salohiyati va mahoratini ishga solishi, vatan himoyasida sobit turishi uchun uning

avvalo, uyidan, oilasidan ko'ngli to'q, farzandlari sog'lom va qulay sharoitlarda voyaga yetayotgan bo'lishi kerak. Qonunchiligimizda esa bularning bari to'la kafolatlangan. Jumladan, xizmat o'tash va yashash uchun harbiylarga munosib shart-sharoitlar yaratish, uy-joy bilan ta'minlash, turar joyini ijaraga olganlik uchun har oylik tovon puli to'lash, uy-joyini xususiyashtirish, xonadon sotib olish uchun uzoq muddatli imtiyozli ipoteka kreditlari hamda farzandlari uchun oliy ta'lim muassasalariga kirishda alohida kvotalar ajratish kabi qator imtiyozlar berilgan. Keyingi yillarda ushbu huquqlarni amalga oshirish tartibi takomillashtirilayotgani esa faqat va faqat harbiy xizmatchilar manfaatiga xizmat qilmoqda.

Faoliyatimizda xalq bilan ochiq muloqot qilish, aholining, jumladan, Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va xodimlari, ularning umr yo'ldoshi va farzandlari hamda Qurolli Kuchlar pensionerlari muammolarini chuqur o'rganish, tezkor hal etish choralari ko'rish, huquq-erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish kundalik vazifaga aylangan.

## **Faoliyat takomili yo'lida**

Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, yoshlarni vatanparvarlik va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash, muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lib rezerva bo'shatilgan fuqarolarni ishga joylashtirishda harbiy boshqaruv va hokimiyat organlari bilan yaqindan hamkorlik qilish, faoliyatni raqamlashtirish orqali harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va moddiy muhofazasi, ularni rag'batlantirish va intizomiy choralar qo'llashning qonuniyligini tahlil qilib borish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Nazorat sohasini raqamlashtirish maqsadida tegishli vazirlik va idoralarda "Qurolli Kuchlarda ijtimoiy himoya" elektron platformasi yo'lga qo'yilgan. Bu orqali harbiy xizmatchilarga uy-joy ajratilishida shaffoflik ta'minlanmoqda, korrupsiya holatlarining oldini olish, hujjatlarining hay'atlar tomonidan qisqa vaqtda ko'rib chiqilishiga erishish, navbatlarni onlayn kuzatib borish ishlari samarali amalga oshmoqda.

Qurolli Kuchlarga integratsiya qilingan "Shaffof qurilish", "E-xarid" hamda "E-auksion" elektron platformalari orqali byudjet mablag'lari sarflanishi va davlat mulkidan foydalanish qonuniyligi ustidan nazorat mexanizmlari takomillashtirib borilmoqda.

Fuqarolarni harbiy xizmatga chaqirish, harbiy xizmatchilarning moddiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi bilan bog'liq qonunlar ijrosi yuzasidan o'tkazilishi rejalashtirilgan tekshirish-

lar haqida ular boshlanishidan kamida bir oy avval veb-saytda e'lon qilinmoqda.

## **Oshkoralik – muhim mezon**

Ochiqlik va oshkoralik – jamiyat va davlat taraqqiyotining muhim omillaridan biri. Faoliyatimizda oshkoralikni ta'minlanishi ham tubdan o'zgardi. Harbiy prokuraturaning rasmiy veb-sayti, "Facebook", "YouTube" va "Telegram" ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalarida harbiy prokuratura organlari faoliyati yoritib borilmoqda va hozirga qadar ularda 10 mingdan ortiq tadbirlar haqidagi ma'lumotlar joylangan.

Kadrlar bilan ishlash borasida yo'lga qo'yilgan yangi tendensiya asosida xizmatga qabul qilishda joriy etilgan ochiq tanlovlarda vakant lavozimlar, nomzodlarga talablar, harbiy-kasbiy tanlovlar va ularni o'tkazish tartibi haqidagi ma'lumotlar veb-saytga muntazam joylab borilmoqda. Muhimi, ushbu ochiqlik asosida eng yuqori natijaga erishgan nomzodlar saralanib, munosiblar xizmatga qabul qilinmoqda. Xodimlarning faoliyat samaradorligini baholash (KPI) tizimi amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Veb-saytimizda yaratilgan "Antikorupsiya" sahifasi esa harbiy prokuratura organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarni doimiy yoritish, qolaversa, fuqarolarga xodimlarning xatti-harakatlari yuzasidan ma'lumot va takliflar berish uchun imkoniyat vositasi bo'lib xizmat qilmoqda.

## **Mardlar qo'riqlaydi Vatanni**

Sir emas, bugungi globallashtirish jarayonlari hamda odamlar, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongi uchun kurash kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda vatanparvarlik tarbiyasining o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Davlatimiz rahbarining mamlakatdagi islohotlar jarayoniga yigit-qizlarni keng jalb qilish, ularning intellektual va ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun sharoitlar yaratish muhimligiga doimo e'tibor qaratishi ham bejizga emas.

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi yangi yo'nalish va vazifalar doirasida o'tgan yil davomida hududiy harbiy prokuraturalarga birlashtirilgan olis hududlarda joylashgan jami 515 ta maktabda, shuningdek, harbiy ta'lim muassasalarida hamda harbiy-akademik litseylarda dolzarb mavzularda 1300 dan ortiq "Prokurorlik soati" tadbirlari o'tkazildi. Ularda 40 mingdan ziyod o'quvchilar va kursantlar ishtirok etdi.

"Armiya va xalq – bir tanu bir jon", "El-yurt taqdiri – mening taqdirim" kabi turkum shiorlar ostida o'tkazib kelinayotgan "Harbiy prokuror va yoshlar" uchrashuvlari ham yosh-



# MUSTAHKAM QALQONI



larning qiziqishlarini, muammo va takliflarini o'rganish, ularning huquqiy hamda hayotiy bilim va ko'nikmalarini boyitish ishlarida alohida ahamiyat kasb etmoqda. Qariyb 20 mingdan ortiq yoshni qamrab olgan 200 dan ortiq uchrashuvlar ham kelajagimiz egalarning manfaatlariga xizmat qildi.

Prezidentimiz, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh qo'mondoni Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2024-yil 12-yanvarda bo'lib o'tgan Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishida qator muhim vazifalar belgilab berilgan edi. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida chegaraoldi hududlaridagi mahallalarda yoshlar ishtirokida kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda keng miqyosda vatanparvarlik tadbirlari izchil amalga oshirilmogda.

Jumladan, chegaraoldi hududlarida joylashgan mahallalarda yoshlar ishtirokida 600 dan ziyod vatanparvarlik tadbirlari o'tkazildi va bularga 150 mingdan ortiq yosh jalb etildi. Umumta'lim maktablarida harbiy-akademik litseylar va oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish tartibi haqida tushuntirish-targ'ibot tadbirlari jadal olib borildi.

## **To'marisu Barchinoylar, Temurbeku Manguberdilar**

Harbiy prokuratura tashabbusi bilan respublikamiz bo'ylab olis hududlardagi umumta'lim maktablarida o'quvchi-qizlar o'rtasida o'tkazilayotgan "Men vatanparvarman" loyihasining ahamiyatini alohida e'tirof etish o'rinli. Chunki aynan shu tadbirlar yurtimizning navnihol To'marislari, Barchinoylarini yuzaga chiqarmoqda. Bunda Mudofaa va Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy gvardiya va Qorovul qo'shinlari ayol harbiy xizmatchilari hamkorligida o'quvchi-qizlarning vatanparvarlik, buyuk xalqimizning boy tarixiy va ma'naviy merosidan faxrlanish, qonunlarga hurmat, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik ruhidagi nazariy va amaliy bilimlari yanada boyitib borilmoqda.

O'quvchi-yoshlarni yangidan-yangi marralarga ilhomlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasidagi amaliy tadbirlar izchil davom ettirilib, turli sport musobaqalari, rassomchilik va fan tanlovlari, ijodiy

bellashuvlar muntazam tashkil etib kelinmoqda.

Harbiy prokuratura tashabbusi bilan Xalqaro Nordik universiteti va "Intelligence Development Center" ta'lim markazi bilan hamkorlikda "O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokurori sovrini" uchun respublikamizdagi "Temurbeklar maktabi", "Jaloliddin Manguberdi" va "Yosh chegarachilar" harbiy-akademik litseylarining 600 nafardan ortiq 10-sinf o'quvchilari o'rtasida ilk bor matematika fanidan o'tkazilgan tanlov ham shular jumlasidan.

Natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyati Shahrizabz shahridagi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik liseyi o'quvchisi Turg'un Abdullayev birinchi, Xorazm viloyati Urganch shahridagi Mudofaa vazirligiga qarashli "Jaloliddin Manguberdi" harbiy-akademik litseyi o'quvchisi Akbarali O'rolboyev ikkinchi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Nukus shahridagi Ichki ishlar vazirligiga qarashli "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseyi o'quvchisi Muso Asqarbayev uchinchi o'rinni egalladi. Iqtidorli bolalarni yuzaga chiqarish, ularni qiziqishlari bo'yicha to'g'ri yo'naltirish mamlakat ertasi uchun ham, o'sha o'g'il-qizlarning kelajagi uchun ham birdek manfaatlidir.

Mudofaa vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi hamda qator vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda oliy harbiy ta'lim tashkilotlari kursantlari o'rtasida o'tkazilgan "Jadidlar – millat fidoyilari" ko'rik-tanlovining respublika bosqichi ham shu yo'nalishdagi tadbirlarning amaliy davomi bo'ldi. Tanlovda Qurolli Kuchlar hamda Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyalari, Milliy gvardiya Jamoat xavfsizligi universiteti, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi bojxona instituti jamoalari bellashdi.

Eng muhimi, mazkur tanlov jadid bobolarimizning ma'rifatparvar faoliyati va fidokorona xizmatlarini o'rganish, ularning milliy ta'lim va tarbiya tizimini yaratish, yurtimiz istiqboli, xalqimiz ozodligi va erkinligi,

kelajak avlodlarning obod va farovon hayotini ta'minlashga qo'shgan beqiyos hissasi hamda g'oyalarini targ'ib etish yo'lida xizmat qildi.

## **Salomatlik – tuman boylik**

Sog'lom turmush tarziga amal qilish orqali inson 100-120 yoshgacha umr ko'rishi mumkin, deya ta'kidlashadi mutaxassislar. Bunda albatta, oziq-ovqat ta'minoti, sifatli hordiq chiqarish, malakali tibbiy xizmatdan foydalanish, yashash va ishlash uchun yetarli sharoit bilan ta'minlanganlik kabi omillar muhim o'rin tutadi.

Ayni maqsadlardagi maxsus reja asosida respublikamiz bo'ylab ko'p bosqichli kompleks tadbirlar yo'lga qo'yilib, olis hududlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari hamda ayol harbiylar o'rtasida kasalliklarni, jumladan, xotin-qizlar orasida uchraydigan onkologik xastaliklarni barvaqt aniqlashga qaratilgan chuqurlashtirilgan tibbiy tekshiruvlar o'tkazildi. Qandaydir kasallik belgilari aniqlansa, muammolarni hal etish choralari ko'rildi.

Bolasi xastalangan odam farzandidan ko'ra ming chandon ko'p azob chekadi. Nuri diydasi sog'ayib ketmaguncha dardu dunyosi zimistonga aylanadi. E'tiborli jihati, bu masala ham alohida e'tiborda. Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari hamda xodimlarining yurak, eshitish va nafas olish a'zolarida tug'ma kasalliklari bor farzandlariga zarur tibbiy xizmatlar ko'rsatish borasida va ular bepul muolaja olishlari uchun tizimli tadbirlar olib borilmoqda. Ushbu jabhadagi o'rganishlar davomida nogironligi, tug'ma yurak nuqsoni va boshqa og'ir kasalliklari bois davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar umumiy ro'yxati shakllantirildi.

Yakuniga ko'ra, Harbiy prokuratura tashabbusi bilan "Bolalar milliy tibbiyot markazi" bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan reja-grafik asosida respublika bo'ylab harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun chuqurlashtirilgan bepul tibbiy tekshiruvlar tashkil etilmoqda.

**Tahririyatdan:** FVV rahbariyati va shaxsiy tarkibi hamda "Muhofaza" jurnali – "Vaziyat" gazetasi birlashgan tahririyati ijodiy jamoasi ikki shonli sana – prokuratura organlari xodimlari hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan huquqni muhofaza qiluvchi organlari xodimlarini qizg'in muborakbod etadi.

Hozirga qadar markazning malakali shifokorlari tomonidan zamonaviy tibbiy texnikalar yordamida harbiy xizmatchilarning 300 nafarga yaqin farzandi tibbiy tekshiruvlardan o'tkazilgan bo'lib, ularning 10 nafarga yaqinida jarrohlik amaliyoti olib borildi, yana 18 nafari stasionar davolanishga yotqizildi, boshqalariga shifokor nazoratida bo'lish, ma'lum muddatdan so'ng qayta tekshiruvdan o'tish kabi va boshqa zarur tibbiy tavsiyalar berildi. Bu hammasi emas, muhimi, boshlangan yilda ham bu singari chora-tadbirlar davom etadi.

## **Qaddingiz tik, sharafingiz buyuk bo'lsin!**

Xalqimiz roziligi yo'lida kecha-yu kunduz fidokorona xizmat qilayotgan barcha prokuratura organlari xodimlarini va faxriylarini "O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari xodimlari kuni" bilan samimiy tabriklaymiz.

Milliy armiyamiz saflarida jasorat va matonat ko'rsatib xizmat qilayotgan, kerak bo'lsa, o'z hayotini bag'ishlab, Vatan himoyasi yo'lida sharafli burchini ado etayotgan barcha harbiy xizmatchilarni va Qurolli Kuchlar faxriylarini "Vatan himoyachilari kuni" bayrami bilan muborakbod etamiz.

Ayni damda shu fikrlar beixtiyor xayoldan o'tadi: inson kasbi, do'sti, umr yo'ldoshi, uyi va boshqa narsalarni tanlashi mumkin. Lekin Vatanni tanlay olmaydi. Shu vatanda tug'ilish odamning tole'iga bitiladi. Ona yurti sevib, ardoqlab, sadoqat bilan xizmatida bo'lish esa mardlarga in'om etilgan eng oliy ne'mat.

Mana shunday eng saodatli, o'z o'rnida o'ta mashaqqatli va mas'uliyatli faoliyatingizda barchangizga eng ezgu tilaklarni tilab qolamiz. Hamisha qaddingiz tik, sharafingiz buyuk bo'lsin!

**Botir KUDRATXODJAYEV,**  
O'zbekiston Respublikasi  
Bosh prokurorining o'rinbosari –  
O'zbekiston Respublikasi Harbiy  
prokurori.



## RAHBAR MA'NAVIYATI VA KASB ETIKASI

Fuqaro muhofazasi instituti boshlig'i polkovnik B.Xikmatov tomonidan harbiy xizmatchi va xizmatchilarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish va yuksak vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo'nalishida "Rahbar ma'naviyati va kasb etikasi" mavzusida mashg'uloti o'tkazildi.

Unda polkovnik B.Xikmatov tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, har bir rahbar xodimdan yuksak kasbiy mahoratni, tashabbuskorlikni, ma'naviyatni, o'z kasbiga va yurtiga fidoiyligi, murakkab sharoitlarda davlat manfaatlarini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishi va bu yo'nalishda yuksak ma'naviyat, odob-ahloq etikasini namoyon qilishi lozimligi haqida ta'kidlab o'tdi.

**Odilbek MIRKAMOLOV,**  
FMI bo'lim boshlig'i, kapitan.  
**Boboraxim DAVUROV,**  
bo'lim katta ilmiy xodimi.

## TARG'IBOT



Kosonsoy tumani FV bo'limi xodimlari hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida tumanning "Go'rmiron" mahallasida yo'riqnoma o'tkazilib, profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Tadbir doirasida tuman hududidagi 35-umumta'lim maktabi, 36-MTT hamda mahallada istiqomat qiluvchi aholi xonadonlari, ko'p qavatli uylarda o'rganishlar o'tkazildi.

Fuqarolar bilan muloqotda respublikamiz miqyosida olib borilayotgan "Yong'in xavfsizligi oyligi" doirasida faol ishtirok etish qish mavsumida yuz berishi mumkin bo'lgan yong'inlar, chaqnash holatlari va is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha tushuntirish ishlari olib borildi. Shuningdek, fuqarolarga xavfsizlik choralarini, elektr va gaz uskunalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha tavsiyalar berildi.

**Azamjon AHMATJANOV,**  
Kosonsoy tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

## MASHG'ULOT

Namangan shahar FV bo'limi yong'in-qutqaruvchilari bilan "Sardoba" bozorida tungi vaqtda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar hamda yong'inlarning oldini olish, ko'ngilsiz hodisalar yuzaga kelganda to'g'ri va aniq harakat qilish, ularni oqibatlarini o'z vaqtida bartaraf etish borasidagi bilim va ko'nikmalari sinovdan o'tkazildi.

**Islomjon MELIBOYEV,**  
Namangan viloyati FVB axborot xizmati  
yetakchi mutaxassisi.  
**Iskandar NURALIYEV,**  
Namangan shahar FV bo'limi boshlig'i  
o'rinbosari, kapitan.



## SEMINAR

O'zbekiston Milliy televideniya'sida "Huquqbuzarliklar profilaktikasi" munosabati bilan mas'ul xodimlar va harbiy xizmatchilar ishtirokida seminar bo'lib o'tdi. Seminar davomida qatnashchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga mutaxassislar tomonidan javob oldilar.

Tadbirda huquqbuzarliklar profilaktikasi — huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish va sodir bo'lish sabablarini, ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan huquqbuzarliklar umumiy, maxsus, yakka tartibdagi va viktimologik profilaktikasining huquqiy, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa chora-tadbirlari tizimi hisoblanadi.

**Dilshod HUSANOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Bosh vazir kotibiyati  
Hukumat uyi binosida YXTTEB inspektori, mayor.  
**Majidjon BO'RIXONOV,**  
katta inspektor, mayor.

## ENERGIYA TEJAMKORLIGI

Olmazor tumani hokimligi, tuman FV bo'limi, tumani GAZ ta'minoti hamda "Eski shahar" MFY rasi ishtirokida mahallada istiqomad qiluvchi fuqarolarga tejamkor gaz garelkalarini o'rnatish va nosozlarini tuzatish yuzasidan seminar o'tkazildi.

Seminarda mahalla fuqarolariga respublikada o'tkazilayotgan energiya tejamkorligi va Yong'in xavfsizligi oyligi yuzasidan tushuntirish berilib, xonadonlardagi gaz garelkalarini sifatli va tejamkor garelkalarga almashtirish bo'yicha ishchi guruhlariga vazifalari tushuntirildi va fuqarolarni gaz bilan bo'g'liq muammolarini hal etish yuzasidan mutahassislar tomonidan atroflicha tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

**Ermamax TURSUNBAYEV,**  
Olmazor tumani FV bo'limi P va NB kichik  
inspektori, katta serjant.

## DAVRA SUHBATI

Davlatobod tumani FV bo'limi inspektorlari tomonidan Namangan shahridagi viloyat Ma'muriy sudi binosida davra suhbatini tashkil etildi.

Unda barcha xodimlarga aholi turar joylarida va ijtimoiy soha obyektlarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'inlar, gaz havo aralashmasi chaqnashi, fuqarolarning is gazidan zaharlanishi va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilinishi bo'yicha aytib o'tildi.

**Sindorbek USMONOV,**  
Davlatobod tumani FV bo'limi PNB inspektori,  
leytenant.

## YO'RIQNOMA

FVV mas'ul xodimi X.Abdurahmonov, Pop tuman sektor rahbarlari, tuman FV bo'limi rahbari N.Rahmonovlar ishtirokida daxldor tashkilotlar vakillari xodimlari bilan profilaktik tadbirlar o'tkazish maqsadida ishchi guruh tuzilib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan yo'riqnoma o'tkazildi.

Dastlab ishtirokchilarga qish mavsumida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan yong'in, chaqnash, is gazidan zaharlanish va boshqa favqulodda vaziyatlarning oldini olish yuzasidan kerakli tavsiyalar berildi.

Tadbir davomida tuman ko'chalarida, mahalla fuqarolar yig'inida targ'ibot karvoni harakatlandi va xonadonlarni yong'inga qarshi holati tekshirilib, gaz, elektr isitish moslamalaridan foydalanish qoidalariga rioya qilish yuzasidan tushuntirilib, fuqarolarga eslatma plakatlar tarqatildi.

**O'tkirjon MAMASODIQOV,**  
Pop tumani FV bo'limi TB boshlig'i, leytenant.

## DAVRA SUHBATI



Andijon viloyati FVB va uning tarkibiy tuzilmalari shaxsiy tarkibi hamda ularning oila a'zolari uchun Milliy gvardiya viloyat bo'yicha boshqarmasi bilan hamkorlikda "Oilaviy bolalar uylarini tashkil etish tartibi va imtiyozlari" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirda Milliy gvardiya viloyat bo'yicha boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari so'zga chiqib, oilaviy bolalar uylarini tashkil etish hamda imtiyozlari to'g'risida atroflicha to'xtalib, fikr va mulohazalarini bildirib o'tdi.

Shuningdek, tadbirda "Oilaviy bolalar uylari"ni tashkil etishga qiziqishi uyg'ongan harbiy xizmatchilarga tushunchalar va mavzu yuzasidan berilgan savollariga javob berildi.

**Hakimov SHERZODBEK,**  
Xo'jaobod tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari,  
kapitan.

## EHTIYOT BO'LING!

Poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanida sodir bo'lgan yong'inlarni tahlil qilganimizda, asosiy yong'inlar aholi turar joylarida sodir bo'layotganligi aniqlandi.

Yong'inlar asosan isitish pechlari va gaz qurilmalaridan, nostandart, qo'lbal elektr isitish, gaz so'rish moslamalaridan yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilmasdan, noto'g'ri foydalanish, elektr uskunalarning nosozligi, olovdan ehtiyotsizlik bilan foydalanish oqibatida sodir bo'lmoqda. Barchamizga ayonki ushbu yong'inlarning oldini olishda uy bekalarining o'rni katta. Sababi o'zbek halqida ro'zg'or yumushlari, bola tarbiyasi bilan asosan uy bekalarimiz shug'ullanadi. Oilada tabiiy gaz va elektr energiyasi bilan ishlovchi jihozlardan foydalanishda yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish va bolalarni nazoratsiz qoldirmaslik, ularga olov bilan o'ynash nechog'li xatarli ekanligini tushuntirib borish har bir oila bekasining oldidagi ma'suliyatli ishdur.

**Sardor MO'MINOV,**  
Mirzo Ulug'bek tumani FV bo'limi inspektori, kapitan.



## VATANPARVARLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI

Vatan – insonning tug'ilgan, kindik qoni to'kilgan, bolalik, yoshlik davri o'tadigan, ta'lim-tarbiya topadigan, safar qilsa, mudom qo'msaydigan joydir. Vatanni sevish, uning ravnaqi yo'lida xizmat qilish, yomon ko'zdan, qora kuchlardan himoya qilish, sha'nini yuqori ko'tarish insonning eng muqaddas burchidir. Vatanni yaxshi ko'rish, qo'msash tuyg'usi jonivorlarda ham bor. Baliq suvga, hayvon o'zining iniga, hasharot uyasiga intiladi. O'sha aqli yo'q jonivorlar ham, hasharotlar ham o'zining uyini taniydi, uni quradi, unda jufti bilan yashab, naslini davom ettiradi, zarur paytda uni himoya qiladi. Shunday ekan, aqlu zakovat, tafakkur ato etilgan, borliqdagi mavjudotlarning gulto'ji bo'lgan insonda esa bu tuyg'u yuksak darajada rivojlangan bo'lishi lozim. Vatanni himoya qilish, o'z xalqini, oilasini himoya qilish erkak kishining sharafli burchidir. Vatanimizda tug'ilib-o'sgan har bir er yigitning qurolli kuchlar safida xizmat qilishi Vatan himoyasining ramzidir.

Bugun odamlar ko'ngliga yo'l topish, ularning dardu tashvishlariga quloq tutish, muammolariga yechim izlashga qaratilgan ulug'vor ishlar haqida ko'p gapirish mumkin. Xo'sh, ezguliklar, xayrli tashabbuslar qayerdan quvvat oladi? Albatta, ko'ngildan! Vatanga, xalqqa daxldorlik hissidan! "Elga qo'shul'g'on esh topti", deb bejiz aytmagan Hazrat Navoiy. Har bir qalbdan o'z xalqining jajji qiyofasi yashaydi, deb yozgan edi taniqli nemis adibi Gustav Freytag. Vatanga muhabbatning asl boisi shudir ehtimol?! Loqaydlik – illat. Hamjihatlikda esa hikmat ko'p. Xo'sh, odamlarni nima birlashtiradi? Ezgu maqsad! Umummanfaat! Bugun Vatanni obod qilish yo'lidagi chaqiriqlarga yurtdoshlarimiz nima uchun bir ovozdan labbay deb javob qaytarishmoqda? Chunki yurtning buguni, kelajagi hammaga daxldor.

Eng buyuk jasorat namunalari qanday yuzaga kelganini bilasizmi? Mashhur fransuz faylasufi Jan-Jak Russoning fikricha, Vatanga muhabbat tufayli! Bu tuyg'uning hayotbaxsh kuchi esa — yaratuvchanlik! Zamonaviy O'zbekistonning yangi davrini ham ana shunday xislatu fazilatlar sohiblari – fidoyi va vatanparvar yurtdoshlarimiz yaratmoqda. Binobarin, barchamizning dilimizdagi maqsadu muddao mushtarak – O'zbekistonimiz eng baxtiyor insonlar mamlakatiga aylansin! Albatta, marralar qanchalik baland olinmasin, loyihalar nechog'li istiqbolli bo'lmasin, Vatanni sevadigan, chin yurakdan mehnat qiladigan fidoyi insonlarsiz ularni amalga oshirib bo'lmaydi. Shukrki, bu borada ham maqtansa arzigulik misollarimiz ko'p. Chinakam vatanparvarlarimiz safi juda keng!

Vatanparvarlik – vatanga muhabbat va sadoqat, vatan uchun xizmat qilish va bu yo'lida butun umrini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo'lsa, o'z jonini ham fido qilish demakdir. Vatanparvarlik barcha insonlar, millatlar, xalqlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy

tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik insonlarning o'z vatani taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hudud daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, kelajagi uchun qayg'urish va daxldorlikda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi.

Vatanparvarlik – bu saylovga o'xshaydi: odamlarning iroda erkinligi va shu bilan birga, fuqarolik burchi. O'z-o'zini anglashi yuqori bo'lgan odamgina o'zida shunday yuksak tuyg'u hosil qilishi mumkin. Vatanga muhabbat bolalikdan, oilada, bog'chada, keyin maktabda, universitetda singdirilishi

xalqining or-nomusi, shon-sharafi, baxt-u saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdek muqaddas va olijanob faoliyatni anglatadi. Shu ma'noda, Vatan ravnaqi uchun faol bo'lishga undaydigan ijtimoiy, ma'naviy-axloqiy fazilat, desak ham to'g'ri bo'ladi.

Tarixdan ma'lumki, Vatan ozodligi uchun kurashish masalasi allomalar asarlari hamda ezgu g'oyalarni ifoda etuvchi ta'limotlarning bosh g'oyasi bo'lib kelgan. Binobarin, muqaddas manbalarda ham "Vatanni sevmoq iymondandir", deyilgan. Shunday ekan, Vatan tarixini bilgan, ulug' ajdodlar merosini chuqur o'rgangan har bir inson qalbida milliy g'urur-iftixor tuyg'ulari yanada jo'sh urib, el-yurtga, Vatanga sadoqati ortib boraveradi.

masalasiga nihoyatda mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi. Zero, tomirida milliy g'urur, Vatan ishq jo'sh urgan oriyatli, ma'naviy jasoratga ega odamgina buyuk ishlarga qodir bo'ladi.

Globalashuv jarayonida harbiy xizmatchilar tomonidan milliy qadriyatlarni saqlashning o'ziga xos tamoyillari haqida fikr yuritganda, harbiy xizmatchi – ruhan tetik, jismonan sog'lom, axloqiy barkamol, talabchan, ma'naviy sog'lom, qanoatli, rostgo'y, sadoqatli, pokiza, ziyrak, andishali, vazminlik kabi shaxsiy fazilatlariga ega bo'lish talab etiladi. Shu bilan birga, o'z sohasining yetuk bilimdoni bo'lishi, hunar sirlarini puxta o'rganishi, yutuq-kamchiliklarini idrok eta olishi, nutq madaniyatini egallashi asnosida barchaga har jihatdan shaxsiy namuna



kerak. Vatan qiyofasi, unga munosabat bola ongida mustahkamlangan oilada vatanparvarlik shakllana boshlaydi. O'smirlik, talabalik yillarida shaxs shaxs sifatida shakllanadi, uning hayotiy tamoyillari tasdiqlanadi.

Vatanparvar deganda o'z hayotini jamiyat manfaatlariga bo'ysundiruvchi shaxs tushuniladi. Vatanparvarlik Vatanga nisbatan hissiy munosabat, unga xizmat qilishga tayyorlik sifatida talqin etiladi. Vatanparvarlikni shaxsning ma'naviy o'zagi va axloqiy asosi deb atash mumkin, bu uning faol fuqarolik pozitsiyasi va samimiy xohish-istaklarini, munosib ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zini namoyon qilish, fidoyilik, o'z xalqiga xizmat qilish zarurligini belgilaydi. Insonning o'z xalqiga bo'lgan sadoqati va fidoyiligi uni vatani himoya qilishiga, taraqqiy topib, har tomonlama mustahkam va qudratli bo'lishiga hamda xalqining tinch va farovon hayot kechirishiga imkoniyat darajasida hissa qo'shishga undashi lozim.

Zero, vatanparvarlik Vatanning ozodligi va obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi, mustaqilligining himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash,

Vatanparvarlik tuyg'usi, avvalo, insonda yurtga nisbatan ichki va tashqi xavflarning oldini olishda mustahkam immunitet shakllanishiga xizmat qiladi. Inson qalbida millat, Vatan, ajdodlar ruhi oldidagi burch va tuyg'ular qanchalik chuqur joy olgan bo'lsa, mahdudlik o'rniga milliy g'oyalar vujudga keladi. Mana shunday fazilatlariga ega insonlarda kurashchanlik, tashabbuskorlik, o'z-o'zini anglash, millat, Vatan sha'ni va manfaatini himoya qilishdek muqaddas tuyg'ular shakllanadi.

Bugungi zamon shiddati inson uchun ma'naviyat naqadar najotkor kuch ekanini namoyon etmoqda. Zero, axloqsizlik, odobsizlik, ma'naviy qashshoqlik insonni ma'naviy tubanlik girdobiga giriftor etib, keng miqyosda esa jamiyat taraqqiyotini izdan chiqarib, parokandalikni yuzaga keltirayotganini namoyon etmoqda. Ma'naviyat insonning jamiyatda yashashi uchun zarur ijobiy fazilatlarini namoyon etuvchi beqiyos kuch. Aynan ma'naviyat tufayli insonda go'zal odob-axloq fazilatlarini shakllanib, uning jamiyatdagi mavqeini belgilab beradi. Shu bois, jamiyat hayotida ma'naviyat

va ibrat bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Vatanparvarlik milliy qadriyatlar zamiridagi eng muhim jihatlardan biri sanaladi. Bugungi kunda vatanparvarlik fazilatlarini kuchaytirishda xalqimizning milliy mentaliteti va qadriyatlarimizni yosh avlod ongiga chuqur singdirish hamda shu orqali ularda kelajakka ishonch tuyg'ularini qaror toptirish muhim.

Xulosa qilib aytganda, Vatan sha'ni, or-nomusini jon-jahdi bilan himoya qiladigan, jamiyat maqsad va manfaatlarini tushunib yetadigan, har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalash, buning uchun farzandlarimiz ongida Vatanga muhabbat, yurt taqdiriga daxldorlik, tinch, erkin va farovon hayotning qadriga yetish tuyg'usini kuchaytirish mudom eng ustuvor masala bo'lib davom etaveradi. Zero, Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ulari, ezgu g'oyalarni tarannum etish tinchlik va barqarorlikning asosi ekan, bu har bir vatandoshimizning muqaddas burchi bo'lib qolaveradi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.



## KATTA OFATLAR

Sanoat inqilobining rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan birinchi eng yirik ekologik ofat 1952-yilning qishida London shahrida sodir bo'lgan. Britaniya poytaxtida tuman tushishi odatiy hol hisoblanadi. Ammo bu galdagi tuman sariq rangda bo'lib, u odamlarga o'lim keltiruvchi zahar edi. XX asr o'rtalarida Londondagi barcha uylar ko'mir yoqish orqali isitilgan. Bundan tashqari, shahardagi 40 ga yaqin elektrostansiyalarining asosiy yoqilg'isi ko'mir edi. Ko'mirning ko'p miqdorda yoqilishi natijasida, oltingugurt dioksidi atmosferaga tarqalib, o'lim keltiruvchi tumanni hosil qiladi. Buning oqibatida sakkiz kun ichida to'rt ming kishi vafot etadi. Keyinchalik bu zaharli tuman yana sakkiz ming nafar insonning yostig'ini quritgan.

1984-yil 3-dekabr kuni tunda Hindistonning Bhopal shahrida joylashgan zararkunandalarga qarshi vositalarni ishlab chiqaruvchi zavodda portlash yuz bergan. Buning oqibatida zaharli gaz atmosferaga tarqalib ketgan. Shu kunning o'zida uch mingdan ziyod kishi zaharlanish oqibatida halok bo'lgan. Keyingi hafta davomida zaharlanishdan besh mingdandan ortiq inson vafot etgan. Hukumatning 2006-yildagi bayonotiga ko'ra, taxminan 200 mingdan ziyod kishi zaharlanib, falajlik va immunitet tanqisligi kabi kasalliklarga chalingan ekan. Ekspertlarning fikriga ko'ra, portlash gaz zaxirasiga suv tushishi natijasida yuzaga kelgan. Bu mudhish hodisada aybdor deb topilgan shaxslarga nisbatan, atiga ikki ming dollar va ikki yillik qamoq jazosi tayinlangan.

1986-yil 26-aprel kuni esa Ukrainaning Chernobil atom elektrostansiyasining to'rtinchi blokida portlash bo'lgan. Bu portlash natijasida, atrof-muhitga Xirosimadagi atom bombasidan ko'ra, 400 barobar ko'p radiatsiya tarqalgan. Falokat sodir bo'lgan kunning ertasiga darhol 30 kilometr hududdan 110 ming kishi evakuatsiya qilingan. Bu halokatni bartaraf etish uchun 600 mingdan ortiq harbiylar va o't o'chirish xodimlari safarbar etilgan. Shunga qaramay stansiyadagi yong'in bir necha kun davom etgan. Rasmiy xabarlariga ko'ra, portlash vaqtida va o't o'chirish jarayonida 31 nafar inson halok bo'lgan. Chernobil atom elektrostansiyasidan chiqqan radiatsiya

ya tez orada, Ukraina, Belarus, Rossiya va Yevropaning boshqa mamlakatlari tarqalib ketadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining hisob-kitoblariga ko'ra, Chernobildan tarqalgan radiatsiya tufayli to'rt ming inson saraton va boshqa turdagi kasalliklarga chalinib, halok bo'lgan. "Greenpeace" ekologik guruhining ma'lumot berishicha, radiatsiya oqibatida halok bo'lganlar soni 200 mingdan ortiq.

Shuningdek, 1988-yilda Aberdin sohili yaqinida joylashgan, Buyuk Britaniyaga tegishli "Piper Alpha" neft platformasida portlash yuz berdi. Buning oqibatida 228 nafar ishchidan 167 tasi halok bo'lgan. Yong'inni bartaraf etish uchun esa deyarli uch hafta vaqt ketgan. "Piper Alpha" Buyuk Britaniyaning neft va gazni qazib olish bo'yicha eng asosiy platformalaridan biri hisoblanib, u kuniga dengiz tubidan 300 ming barreldan ortiq neftni qazib chiqargan. 2010-yil 20-aprel kuni esa Meksika ko'rfazidagi "Deep Water" neft platformasining portlashi eng yirik texnogen falokatlaridan biri hisoblanadi. Bu falokat natijasida, 13 kishi halok bo'lgan va 17 nafar ishchi jarohat olgan. Eng achinarlisi ekologiyaga katta zarar yetkazilgan. Portlash oqibatida dengiz tubida joylashgan neft quvurlariga katta zarar yetadi. 152 kun davomida okean tubidagi quvurdan 5 million barrelga yaqin neft suvga tarqalib, 75 ming kv/km.

hududni ifloslantiradi. Mutaxassislar bir yil davomida neft tarqalishiga qarshi kurash olib borishgan. Ushbu vaqt ichida Meksika ko'rfazi o'lgan hayvonlar va neft yuvindisiga to'lib ketadi. Bu falokat oqibatida umumiy miqdorda 6 ming 814 ta hayvon, shu jumladan, 6 ming 104 ta dengiz qushi, 609 ta dengiz toshbaqasi va 100 ta delfin nobud bo'lgan.

Qolaversa, 2011-yilning mart oyida Yaponiya tarixidagi eng kuchli to'qqiz ballik zilzila sodir bo'ldi. Bu yer silkinishi o'z navbatida sunamini keltirib chiqargan. Qisqa vaqt ichida butun mamlakatni suv bosgan. Sunami natijasida Tokiodan 250 kilometr uzoqlikda joylashgan Fukusima



atom elektrostansiyasi ishdan chiqdi. 11-mart kuni elektr tokining o'chishi oqibatida reaktor qobig'i qizib, birinchi va uchinchi blokda portlash yuz beradi. Darhol stansiya atrofidagi 160 mingdan ziyod aholi evakuatsiya qilingan. Ma'lumotlarga ko'ra, zilzila va suv toshqini oqibatida 15 ming kishi halok bo'lgan hamda 6 mingdan ortiq inson daraksiz ketgan. 2011-yil 23-mart kuni olimlar Fukusimadan 30 kilometr uzoqlikdagi okean suvi namunalari o'rganishgan. Tadqiqot natijasiga ko'ra, suvdagi radiatsiya darajasi normal ko'rsatkichdan to'rt ming barobar oshib ketgani ma'lum bo'ladi. Fukusimagi yadroviy falokat Chernobil atom elektrostansiyasidagi portlashdan keyin, insoniyat tarixida eng dahshatli yadroviy falokatga aylandi.

Anvar QOBILOV tayyorladi.

## DIQQAT E'LN



**FVW Akademiyasi 2025-yil 6-yanvardan 2025-yil 6-fevralga qadar quyidagi pedagog lavozimlarga tanlov e'lon qiladi:**

"Tillar" kafedrasini bo'yicha:

1 nafar – kafedra dotsenti (Ingliz tili fani bo'yicha) lavozimi;

"Umumkasbiy va umumilmiy fanlar" kafedrasini bo'yicha:

1 nafar - kafedra professori (Issiqlik texnikasi, Amaliy mexanika fanlari bo'yicha) lavozimi.

Tanlovda qatnashishni xohlovchilar Akademiya boshlig'i nomiga ariza va unga ilova qilib quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

kadrlarni hisobga olish bo'yicha shaxsiy varaqa;

oliy ma'lumot to'g'risidagi diplomlar nusxasi;

ilmiy daraja (shu jumladan, fan doktori (DSc), falsafa doktori (PHD), fan nomzodi, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PHD) darajasiga yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga) egaligi to'g'risida guvohnoma;

ilmiy unvonga egaligi to'g'risida guvohnoma;

ilmiy ishlar (monografiya, maqola, tezis va ma'ruza) va ixtirolar mavjud bo'lgan taqdirda ular tegishli diplomlar, attestatlar nusxalari va ilmiy ishlar nusxasi va ro'yxati; malaka oshirish to'g'risidagi guvohnomalar nusxasi.

Lavozimlar bo'yicha talablar:

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda qoidaga ko'ra, professor ilmiy unvoniga yoki fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, tegishli mutaxassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Professor lavozimini egallash uchun tanlovda fan nomzodi, falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasiga yoki tegishli muta-

xassislik bo'yicha xorijiy mamlakatlarning unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga yoki dotsent ilmiy unvoniga ega bo'lgan shaxs kamida 5 yil ilmiy-pedagogik ish stajiga ega bo'lish, ushbu kafedraning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lish sharti bilan bir muddatga ishtirok etishi mumkin.

Dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda dotsent ilmiy unvoniga, katta ilmiy xodim yoki fan nomzodi, falsafa doktori (PhD), fan doktori yoki fan doktori (Doctor of Science) ilmiy darajasiga, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning tegishli mutaxassislik bo'yicha ularga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajalariga ega bo'lgan shaxs ishtirok etishi mumkin.

Bir muddatga dotsent lavozimini egallash uchun tanlovda, shuningdek, tegishli ilmiy unvonga va ilmiy darajaga ega bo'lmagan, biroq ushbu mutaxassislik bo'yicha kamida 3 yillik amaliy ish tajribasiga ega bo'lgan, mazkur kafedraning ta'lim yo'nalishlari bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalari muallifi bo'lgan yuqori malakali mutaxassis ham qatnashishi mumkin.

**Manzil:** Toshkent shahar, Yangi hayot tumani, Do'stlik ko'chasi 5-uy. Ma'lumot uchun: 71-258-56-57, 97-764-34-87.



## Vaziyat

gazetasi

**Muassis:**  
O'zbekiston  
Respublikasi  
Favqulodda  
vaziyatlar  
vazirligi

*Bosh muharrir*  
**Azamat SUYUNOV**

*Gazeta tahririyat  
kompyuterxonasida  
sahifalandi.*

Gazeta har haftaning  
payshanba kuni chiqadi.  
Topshirish vaqti – 15.00  
Topshirildi – 15.00

*Navbatchi:*  
**A.QOBILOV**

*Sahifalovchi:*  
**B.SALOHIDDINOV**

Tahririyatga yuborilgan  
materiallar qaytarilmaydi  
va izoh berilmaydi.  
Mualliflar fikri  
tahririyat nuqtai nazaridan  
farqlanishi mumkin.

Gazetadan olingan materiallar  
manbasi ko'rsatilishi shart.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va  
axborot agentligida 2007-yil  
3-yanvarda 0096-son raqam  
bilan ro'yxatga olingan  
**ISSN 2091-5292**

**Tahririyat manzili:**  
100084, Toshkent shahri,  
Yunusobod tumani,  
Sh.Rashidov ko'chasi, 17-A-uy.  
**Tel.:** (71) 212-69-56  
**Telegram:** (90) 016-87-67

**Indeks:**  
*yakka obunachilar va  
tashkilotlar uchun - 382*

Gazeta "Sharq NMAK"  
bosmaxonasida bosildi.  
Manzil: Toshkent shahri,  
Mirobod tumani  
Buyuk Turon ko'chasi 41-uy  
Buyurtma № G-152  
Bichimi: A3, hajmi: 2 b.t.  
Adadi - 14700 nusxa